

**ANGREN SHAHRI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM
JARAYONIDA GENDER TENGLIK MADANIYATINING
ETNOMADANIY OMILLAR ASOSIDA SHAKLLANISHI
(Empirik tahlil asosida)**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-282-285>

Mamadalihojiyeva Shohsanam Sheraliyevna

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti,
Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistranti..*

E-mail manzil: shohsanamtoshtemirova606@gmail.com

Ilmiy rahbar: M.M.Askarov

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası dotsenti, PhD

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Angren shahri umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonida gender tenglik madaniyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi etnomadaniy omillar empirik tadqiqot asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot 4-, 8-, 30- va 31-maktablarning 9–11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan 16 savoldan iborat so'rovнома natijalariga tayangan. Natijalar oilaviy qadriyatlar, an'anaviy gender stereotiplari va maktab muhitining gender tenglik madaniyatini shakllantirishdagi rolini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: *gender tenglik, etnomadaniy omillar, ta'lim jarayoni, gender stereotiplari, maktab muhiti, Angren shahri*

АННОТАЦИЯ

В статье на основе эмпирического исследования анализируются этнокультурные факторы формирования культуры гендерного равенства в образовательном процессе общеобразовательных школ города Ангрен. Исследование проведено на основе анкетирования учащихся 9–11 классов школ № 4, 8, 30 и 31. Полученные результаты отражают влияние семейных ценностей, традиционных гендерных стереотипов и школьной среды на формирование культуры гендерного равенства.

Ключевые слова: *гендерное равенство, этнокультурные факторы, образовательный процесс, гендерные стереотипы, школьная среда, город Ангрен*

ABSTRACT


This article examines ethnocultural factors influencing the formation of a gender equality culture in the educational process of secondary schools in Angren city based on an empirical study. The research relies on a 16-question survey conducted among 9th–11th grade students of schools No. 4, 8, 30, and 31. The findings highlight the role of family values, traditional gender stereotypes, and the school environment in shaping gender equality culture.

Keywords: *gender equality, ethnocultural factors, educational process, gender stereotypes, school environment, Angren city*

Mazkur maqola muallifning dissertatsiya tadqiqoti doirasida olib borilgan empirik izlanishlar asosida tayyorlangan bo'lib, ta'lim jarayonida gender tenglik madaniyatini shakllantirishda etnomadaniy omillarning o'рни va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Empirik tadqiqot obykti sifatida Angren shahri tanlanishi bejiz emas. Mazkur hudud oʻzining koʻp millatli tarkibi, turli etnomadaniy anʼanalarning uygʻunligi hamda sanoat va taʼlim muhiti bilan ajralib turadi. Bu esa gender munosabatlarning shakllanish jarayonini kompleks oʻrganish imkonini beradi.

Respondentlarning jinsi boʻyicha taqsimoti



Tadqiqot Angren shahridagi 4-, 8-, 30- va 31-umumtaʼlim maktablari misolida olib borildi.

Tadqiqotda jami 173 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlarning jinsi, sinf bosqichi va milliy tarkibi boʻyicha taqsimoti quyidagi jadvallarda keltirilgan.

Soʻrovnoma tadqiqoti 9-, 10- va 11-sinf oʻquvchilarini qamrab oldi.


Respondentlarning asosiy qismini 9- va 10-sinf oʻquvchilari (79,2 %) tashkil etadi. Bu yosh guruhida oʻquvchilarda kasb tanlash, kelajak rejalari va gender rollari haqidagi tasavvurlar faol shakllanayotganligi sababli ularning fikrlari tadqiqot uchun ayniqsa muhimdir. 11-sinf oʻquvchilarining ulushi (20,8 %) esa yakuniy qarorlar shakllangan bosqichni tahlil qilish imkonini beradi.

“Oilamda qiz va oʻgʻil taʼlim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan.”

Mazkur savol respondentlarning oilaviy muhitda gender tenglikka boʻlgan munosabatini aniqlashga qaratilgan boʻlib, 5 ballik Likert shkalasi asosida baholandi (1 — umuman yaratilmagan, 5 — toʻliq yaratilgan).

Jadval maʼlumotlari shuni koʻrsatadiki, respondentlarning mutlaq koʻpchiligi — 91,3 % oilada qiz va oʻgʻil farzandlar uchun taʼlim olishda teng imkoniyatlar yaratilganligini qayd etgan. Bu holat Angren shahri oilalarida taʼlim masalasida gender tenglikka ijobiy munosabat shakllanayotganidan dalolat beradi.

Oilamda qiz va oʻgʻil taʼlim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan




Shu bilan birga, respondentlarning 7,5 % qismi mazkur masalada betaraf pozitsiyani bildirgan. Bu holat ayrim oilalarda gender tenglik masalasining aniq shakllanmaganligi yoki yashirin (bilvosita) tengsizlik elementlari mavjud boʻlishi mumkinligini koʻrsatadi[2].

Faqat 1,2 % respondent oilada ta’lim imkoniyatlari qisman yaratilganligini bildirgan bo’lsa, “umuman yaratilmagan” degan javobning mavjud emasligi e’tiborga loyiqdir. Mazkur natija Angren shahridagi etnomadaniy muhitda ta’limga nisbatan umumiy ijobiy qarashlar ustun ekanini, qiz va o’g’il farzandlar ta’limi muhim qadriyat sifatida qabul qilinishini ko’rsatadi.

“Uyda kelajak rejalari haqida gap ketganda, qizlar uchun turmush qurish, o’g’il bolalar uchun esa oila boqish ustunroq hisoblanadi.”


Mazkur savol respondentlarning oiladagi an’anaviy gender rollari va etnomadaniy stereotiplarga munosabatini aniqlashga qaratilgan bo’lib, 5 ballik Likert shkalasi asosida baholandi (1 — mutlaqo qo’shilmayman, 5 — to’liq qo’shilaman).

Jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, respondentlarning asosiy qismi — 68,3 % (1 va 2 javoblar) oilada kelajak rejalari masalasida qiz va o’g’il farzandlar uchun an’anaviy rollarning ustun qo’yilishiga qo’shilmasligini bildirgan. Bu holat



Angren shahridagi oilalarda gender tenglikka nisbatan zamonaviy qarashlar kuchayib borayotganini ko’rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 18,5 % betaraf pozitsiyani egallagan bo’lib, bu ayrim oilalarda mazkur masalada aniq qarash shakllanmaganligi yoki an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar o’rtasidagi ikkilanma holat mavjudligini anglatadi. E’tiborli jihati shundaki, respondentlarning 13,3 % qismi ushbu fikrga qisman yoki to’liq qo’shilgan. Bu natija Angren shahrida hanuzgacha an’anaviy etnomadaniy gender stereotiplari saqlanib qolayotganini, xususan, qizlar uchun turmush qurish, o’g’il bolalar uchun esa

Darslarda qizlar va o’g’il bolalardan bir xil natija kutiladi:



moddiy ta’minot mas’uliyati ustuvor deb qaralishini ko’rsatadi[1].

“Darslarda qizlar va o’g’il bolalardan bir xil natija kutiladi.”

Mazkur savol ta’lim jarayonida o’qituvchilar va maktab muhiti tomonidan qizlar hamda o’g’il bolalarga nisbatan bir xil akademik talablar qo’yilishi masalasini

aniqlashga qaratilgan bo‘lib, 5 ballik Likert shkalasi asosida baholandi (1 — umuman bir xil emas, 5 — to‘liq bir xil).

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 65,9 % dars jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalardan bir xil akademik natijalar kutilishini qayd etgan. Bu holat Angren shahridagi umumta’lim maktablarida gender tenglik tamoyillari rasmiy va amaliy darajada ma’lum darajada qaror topganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 23,7 % mazkur masalada betaraf pozitsiyani bildirgan. Bu ko‘rsatkich o‘qituvchilar tomonidan qo‘yilayotgan talablar barcha fanlar yoki barcha vaziyatlarda bir xil qabul qilinmasligi, shuningdek, ayrim hollarda yashirin yoki sezilmas gender farqlari mavjud bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi. E’tiborga molik jihat shundaki, respondentlarning 10,4 % (1 va 2 javoblar yig‘indisi) darslarda qizlar va o‘g‘il bolalardan bir xil natija kutilmasligini bildirgan. Bu holat ta’lim jarayonida stereotipik yondashuvlar, ayrim fanlarda yoki baholash jarayonida genderga asoslangan farqlar mavjud bo‘lishi ehtimolini ko‘rsatadi[4].

Tadqiqot natijalari Angren shahri umumta’lim maktablarida gender tenglik madaniyatining shakllanishida oila va maktab muhitining muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati oilada qiz va o‘g‘il farzandlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari teng yaratilganini e’tirof etdi[3]. Ta’lim jarayonida esa qizlar va o‘g‘il bolalardan bir xil natija kutilayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda yashirin gender farqlari mavjudligi kuzatildi. Bu holat ta’limda gender sezgir yondashuvlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. — 247 p.
2. UNESCO. Gender Equality in Education: Looking Beyond Parity. — Paris: UNESCO Publishing, 2018. — 156 p.
3. Connell R. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. — Stanford: Stanford University Press, 1987. — 334 p.
4. Subrahmanian R. Gender Equality in Education: Definitions and Measurements. — Brighton: Institute of Development Studies, 2005. — 52 p.